International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

Shavkat Rahmon She'rlarida So`Zlarning Sintagmatik Aloqasi, Milliy-Madaniylik Belgisi Va Uslubiy Belgisiga Ko`Ra Aloqadorligi Asosida Shakllangan Assotsatsiya

Makhmudov Shukhrat Abdulazizovich
Tashkent University of Chemistry
Associate Professor of the
Department of Foreign Languages

Annotatsiya

Mazkur ishda o`zbek adabiyotining zabardast vakili Shavkat Rahmon ijodida so`zlarning sintagmatik belgisiga asoslangan assotsatsiya, milliy-madaniy belgisi va uslubiy belgisi aloqadorligiga asoslangan assotsativ birliklar tahlilga tortilgan.

Annotation

In this work, associations based on the syntagmatic sign of words, associative units based on the connection of national-cultural sign and methodological sign in the work of the veteran representative of Uzbek literature Shavkat Rahmon were analyzed.

Аннотация

В данной работе проанализированы ассоциации в творчестве ветерана узбекской литературы Шавката Рахмона, основанные на синтагматическом знаке слов, ассоциативные единицы, основанные на взаимосвязи национально-культурного знака и методологического знака.

**Kalit so`zlar:** assotsatsiya, sintagmatik aloqa, milliy madaniy birliklar, so`zlarning uslubiy belgisi.

Key words: association, syntagmatic connection, national cultural units, stylistic sign of words.

Ключевые слова: ассоциация, синтагматическая связь, национальные культурные единицы, стилистические обозначения слов.

Tilning jamiat a’zolariga birdek xizmat qilvchi ishtimoiy xodisa ekanligi ancha vaqtlardan beri takidlab kelinmoqda. Tilning ushbu funksiyasinig tilshunoslik sohasi vakillarini birlashishga undashi tabiiy xodisa. Keyingi yillar tilshunosligida olib borilgan izlanishlar tilning serqirra hodisa ekanligini ilmiy xulosalar bilan asoslandi. Buning natijasi o`laroq til faqatgina grammatik qurilishdan iborat hodisa  emasligi, uni inson omili bilan bog’liq ravishda o`rganish lozimligi masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Xususan, tilni shaxs omili bilan tadqiq etish metodologiyasiga asoslangan antroposentrik tilshunoslik bir qator jaxon tilshunosligi vakillarining e’tiborini tortdi va o`z yechimini kutayotgan bir talay masalalarga yechim berdi.

Ushbu murakkab jarayon maslalari yechimini o`z zimmasiga olgan antrposentrik tilshunoslik o`z ichida bir necha tarmoqlardan iborat. Ular ichida tilni tildan foydalanuvchi shaxsning borliq haqidagi psixalogik qarashlari bilan tahlil qilish metadologiyasiga asoslanib tahlil qiladigan tilshunoslik sohasi assotsativ tilshunoslikdir. Ushbu soha bugungi kun o`zbek tilshunosligida yangi soha siftida baholanayotgan bo`lsa-da, jaxon tilshunosligida ancha avval o`z tadqiqoqot metododlogiyasiga ega bo`lib ulgurgan edi. Bugungi o`zbek tilshunosligida ham bu sohada bir qator ishlarda assotsativ tilshunoslik masalasiga shaxsiy fikr-mulohazalar berib borilmoqda. Chunonchi assotsatsiya xususidagi ilk qarashlar  Safarov.Sh, Nurmonov.A singari tilshunoslar ishlari[1]da berilgan bo`lsa-da, masalaning ilk monografik aspektda tahlil qilinishi D.Lutfullayeva nomi bilan bog’liq[2]. Olima ushbu ishida assotsatsiya hodisasi, uning o`rganilishi, assotsatsiyaning hosil bo`lishida ishtirok etuvchi omil va vositalar xususida atroflicha ma’lumotlar berib, o`zidan keyingi ishlarning yaratilishiga turki vazifasini bajardi. Bugungi ishimiz asosi ham ushbu asar hisoblanadi, albatta.

O`zbek tilshunoslik sohasida assotsativ birliklar tahlili masalasi bir qator adiblar ishlarining assatsativ tahlili masalasida olib borildi. Ushbu ishlar qatori Shavkat Rahmon ijodi assatsativ tahlili masalasini ham shular qatoriga kiritmoqchimiz.

Til egalari nutqida til birliklarining biri ikkinchisini talab qilishining muhim shartlaridan biri ularning o`zaro sintagmatik aloqada ekanligidir. Ma’lumki, nutqda so`zlar bir-biri bilan sintagmatik aloqada bo`lib, nutq egalarining voqelik haqidagi ma’lumotlar almashinuvini taminlaydi. So`zlarning nutqdagi o`zaro sintagmatik aloqasi bir vaqtning o`zida til egalarida bir so`z yoki so`z birikmasi ikkinchi so`z yoki so`z birikmasini yodga solishini ham taminlaydi, bu esa so`zlarning sintagmatik aloqasi asosida assotsiatsiya hosil bo`lishini bildiradi. Omonon Matjon she’riy matnlarining assotsiativ tahlili yuzasidan ilmiy izlanish olib borgan H.Raxmonov

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 23.
Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Akademhashr, 2012. – Б. 93.
[2]

turtki so`z va assotsiativ birlik o`rtasidagi tobelik munosabati sintagmatik assotssatsiyani yuzaga keltirishini, sintagmatik assotsiatsiyalar orqali so`z birikmasi va gaplar hosil bo`lishini takidlaydi.[3] Shunisi harakterliki, sintagmatik assotsiatsiyada, asosan, individual harakterdagi assotsiatsiya ifodaladi. Shavkat Rahmon ijodida ham so`zlarning sontagmatik aloqasiga asoslangan assotsatsiyaning voqelanganligini ko`rishimiz mumkin:

Bolakayga
Shohim dedim,
Podshohim dedim,
Qani buyur, devman, qulingman,
Tuyog'idan o`t chaqnaguvchi
Qanoti bor bir duldulingman.

"Bolakayga" sarlavhasi ostida berilgan ushbu she'riy parchadagi *shohim dedim, podshohim dedim* birliklari bolakayga stimul so`zi bilan boshqaruv munosabatidagi grammatik bog`lanishni hosil qilib, assotsiativ maydon tarkibini shakllantirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi tahillardan ma'lum bo`ladiki, Shavkat Rahmon ijodida so`zlarning sintagmatik munosabatiga asoslangan assotsiatsiyalardan foydalanib, o`zbek tilidagi assotsiativ me'yorga aylangan va individual harakterdagi assotsiatsiyalardan foydalangan.

Leksemalaning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiya. O`z semik tarkibiga milliy-madaniylik belgilarini singdirgan milliy-madaniy birliklar inson tafakkurida o`z leksik ma'nosidan tashqari umuminsoniyatga xos madaniyat belgilarini ham aks ettiradi. Bu esa milliy-madaniy birliklarning til egalari xotirasida ko`p qirrali birliklar sifatida, ya'ni bir vaqtning o`zida atash ma'nosi va muayyan xalqning etnik madaniyati haqida ma'lumot beruvchi birliklar sifatida o`rin egallashini bildiradi. Professor D.Lutfullayeva ham muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib berilishini takidlaydi. Ayni shu birliklarning tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta olishini takidlab, *qurbonlik, kelinsalom, hayit, do`ppi, chopon, ro`mol* singari leksemalari denotativ ma'nosidan tashqari ular ifoda etgan udum va kiyimlarning o`zbek xalqi madaniyatiga xosligi haqidagi ma'lumotni ham tashishini ko`rsatib o`tadi.[4]

Shavkat Rahmonning "Yolg'izlik" deb nomangan she'riy parchasi tahlilida ham so`zlarning milliy-madaniylik belgilari asosida assotsiatsiya hosil qilganiga guvoh bo`ldik:

---

[3] H.Rahmonov. Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ sturukturasi. Qo`qon – 2023. 56 b.

[4] Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
– 47 б.

Volidasi **oppoq ro`molda**

Yengi bilan artarmish ko`zin,

Bolam, olib ketgani keldim,

Qiynalibsan bunda bir o`zing…

Ro`mol* leksemasi O`zbek tilining izohli lug`atida **1** Ayollar boshiga o`raladigan, odatda to`rtburchak shaklidagi mato[5] ma'nosida qo`llangan. Bundan ko`rinadiki, ro`mol so`zi milliy-madaniylik semasi bilan til egalari xotirasida ayol leksemasini gavdalantiradi, bu esa til egalari onggida ayol va ro`mol so`zlari assotsiatsiyasi hosil bo`lganligini anglatadi. Ushbu she'riy parchada qo`llangan *ro`mol so`zining *oppoq* so`zi bilan bitshuv munosabli so`z birikmasi holatida kelishi esa *oppoq ro`mol* sintaktik birligining *volidasi* so`zi bilan assotsiatsiya hosil qilganligiga sabab bo`ladi. Chunki til egalari xotirasida o`zbek onalarining oppoq ro`mol bilan gavdalanishi odatiy xol hisoblanadi.

Ijodkorning "Torixiy ong" sarlavhali she'riy parchasida milliy-madaniylik belgilariga ega bo`lgan presedent birlikning stimul so`z bilan assotsiatsiya hosil qilganligini ko`rishimiz mumkin. Bunda stimul so`z – assotsiativ birlik shaklidagi assotsiatsiya hosil bo`lgan:

Ko`ksingdagi Muqanna bilan

o`zligigngga qaradingmi hech?!

Musht zarurroq bo`lgan mahalda

yozding zarur she'rlarni faqat…

Tarix darsliklarida Muqanna o`rta asrlarda o`zbek qabilalari istiqomat qiladigan hududlarga ayovsiz bostirib kelgan yovuz bosqinchi sifatida gavdalanadi. Shu sabab Shavkat Rahmon *Tarixiy ong* stimul so`ziga *Muqanna* so`zini javob reaksiyasi sifatida qo`llab, *stimul so`z - assotsiativ birlik* qolipidagi assotsiatsiyaning hosi bo`lishini taminlagan.

So`zlarning uslubiy belgisiga ko`ra aloqadorligi. Uslubiy xoslangan so`zlarning til eglari xotirasida bir-birini taqazo etishi ularning assotsiativ bog`lanishini taminlaydi. Shavkat Rahmon she'rlarida, asosan, badiiy uslubga xoslangan so`zlar assotsiasi kuzatiladi. Shoirning "Ro`molcha" sarlavhali she'rida badiiy uslubga xoslangan yordamchi so`z turkumiga xos birliklar assotsatsiasi kuzatilgan:

Yomg`irning uzilgan

torlari **kabi**

tuyg'ular quyilgan teran o`zanga…

Kezaman **bamisli** bedor bir nabi –

boshimda dunyolar nurli to`zonday

[5] O`zbek tilining izohli lug`ati. 3-jild. – Toshkent. "O`zbekistn milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 y. B.406.

Tilshunoslikda *bilan, kabi, singari, bamisli, misli, misoli* singari sof ko`makchilarning o`zaro sinonimik munosabatda bo`lib, ulardan *bamisli, misli, misoli* ko`makchilari badiiy uslubga xoslangan ko`makchi sifatida baxolishi ma'lum. Ijodkor ushbu she'riy parchada ko`makchilarning assotsiativ birlik-assotsiativ birlik strukturasidagi assotsatsiadan foydalangan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumki, insonning tashqa olam haqidagi psixologik tasavvurlari hosilasi xisoblanmish assotsatsiyani Shavkat Rahmon ijodining struktur jixatini taminlovchi asosiy vositalaran biri sifatida baholash mumkin. Ijodkor o`z ijod na'munalarida so`zlarning sintagmatik aloqasi, milliy-madaniylik belgisiga ega leksemalar turtkisi asosida shakllangan assotsatsiyalardan o`rinli foydalangan.

Adabiyotlar:

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 23.
3. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Akademhashr, 2012. – Б. 93.
4. H.Rahmonov. Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ sturukturasi.dissertatiya. Qo`qon – 2023. 56 b.